

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI BOSH PROKURORINING
BUYRUG'I**

**TERRORCHILIK FAOLIYATIDA YOKI OMMAVIY QIRG'IN QUROLINI
TARQATISHDA ISHTIROK ETAYOTGAN YOKI ISHTIROK ETISHDA GUMON
QILINAYOTGAN SHAXSLAR RO'YXATIGA KIRITILGAN SHAXSLARNING
OPERATSIYALARINI TO'XTATIB TURISH, PUL MABLAG'LARINI YOKI BOSHQA
MOL-MULKINI ISHGA SOLMAY TO'XTATIB QO'YISH, ISHGA SOLMAY TO'XTATIB
QO'YILGAN MOL-MULKIDAN FOYDALANISHGA RUXSAT BERISH VA
OPERATSIYALARINI TIKLASH TARTIBI TO'G'RISIDAGI NIZOMNI TASDIQLASH
HAQIDA**

**[O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi tomonidan 2021-yil 19-oktabrda ro'yxatdan
o'tkazildi, ro'yxat raqami 3327]**

O'zbekiston Respublikasi "Prokuratura to'g'risida"gi Qonunining **13-moddasi** va "Jinoi faoliyatdan olingan daromadlarni legallashtirishga, terrorizmni moliyalashtirishga va ommaviy qirg'in qurolini tarqatishni moliyalashtirishga qarshi kurashish to'g'risida"gi Qonunining **15-moddasiga** muvofiq buyuraman:

1. Terrorchilik faoliyatida yoki ommaviy qirg'in qurolini tarqatishda ishtirok etayotgan yoki ishtirok etishda gumon qilinayotgan shaxslar ro'yxatiga kiritilgan shaxslarning operatsiyalarini to'xtatib turish, pul mablag'lарини yoki boshqa mol-mulkini ishga solmay to'xtatib qo'yish, ishga solmay to'xtatib qo'yilgan mol-mulkidan foydalanishga ruxsat berish va operatsiyalarini tiklash tartibi to'g'risidagi nizom **ilovaga** muvofiq tasdiqlansin.

2. Mazkur buyruq rasmiy e'lon qilingan kundan e'tiboran kuchga kiradi.

Bosh prokuror N. YO'LDOShEV

Toshkent sh.,
2021-yil 30-iyul,
53-B-son
Kelishildi:

Monopoliyaga qarshi kurashish qo'mitasi raisi Sh. ShARAXMETOV

2021-yil 30-iyun

**O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Loyiha boshqaruvi milliy agentligi Direktori
D. LI**

2021-yil 1-iyul

Sanoat xavfsizligi davlat qo'mitasining raisi B. GULYAMOV

2021-yil 30-iyun

Ichki ishlar vaziri P. BOBOJONOV

2021-yil 2-iyul

Moliya vaziri T. IShMETOV

2021-yil 1-iyul

Markaziy bank raisi M. NURMURATOV

2021-yil 16-iyul

Davlat aktivlarini boshqarish agentligi direktori A. ORTIQOV

2021-yil 2-iyul

O'zbekiston Respublikasi DXX raisi A. AZIZOV

2021-yil 30-iyul

Axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalarini rivojlantirish vaziri Sh. SADIKOV

2021-yil 17-iyul

Tashqi ishlar vaziri A. KAMILOV

2021-yil 26-iyul

O‘zbekiston Respublikasi Bosh prokurorining 2021-yil 30-iyulda 53-B-son **buyrug‘iga ILOVA**

Terrorchilik faoliyatida yoki ommaviy qirg‘in qurolini tarqatishda ishtirok etayotgan yoki ishtirok etishda gumon qilinayotgan shaxslar ro‘yxatiga kiritilgan shaxslarning operatsiyalarini to‘xtatib turish, pul mablag‘larini yoki boshqa mol-mulkini ishga solmay to‘xtatib qo‘yish, ishga solmay to‘xtatib qo‘yilgan mol-mulkidan foydalanishga ruxsat berish va operatsiyalarini tiklash tartibi to‘g‘risida

NIZOM

Mazkur Nizom O‘zbekiston Respublikasining “Jinoiy faoliyatdan olingan daromadlarni legallashtirishga, terrorizmni moliyalashtirishga va ommaviy qirg‘in qurolini tarqatishni moliyalashtirishga qarshi kurashish to‘g‘risida”gi **Qonuniga** muvofiq terrorchilik faoliyatida yoki ommaviy qirg‘in qurolini tarqatishda ishtirok etayotgan yoki ishtirok etishda gumon qilinayotgan shaxslar ro‘yxatiga kiritilgan shaxslarning operatsiyalarini to‘xtatib turish, pul mablag‘larini yoki boshqa mol-mulkini ishga solmay to‘xtatib qo‘yish, ishga solmay to‘xtatib qo‘yilgan mol-mulkidan foydalanishga ruxsat berish va operatsiyalarini tiklash tartibini belgilaydi.

1-bob. Umumiy qoidalar

1. Ushbu Nizomda quyidagi asosiy tushunchalar qo‘llaniladi:

pul mablag‘larini yoki boshqa mol-mulkni ishga solmay to‘xtatib qo‘yish — pul mablag‘larini yoki boshqa mol-mulkni o‘tkazishni, konversiyalashni, tasarruf etishni yoxud ko‘chirishni taqiqlash;

O‘zbekiston Respublikasining vakolatli organlari — O‘zbekiston Respublikasi Davlat xavfsizlik xizmati, Ichki ishlar vazirligi, Bosh prokururasi va Sanoat xavfsizligi davlat qo‘mitasi;

terrorchilik faoliyatida ishtirok etayotgan yoki ishtirok etishda gumon qilinayotgan shaxs — terrorchilik faoliyatida ishtirok etayotgan yoxud ishtirok etishda gumon qilinayotgan yuridik yoki jismoniy shaxs, terrorchilik faoliyatini amalga oshirayotgan yoxud amalga oshirishda gumon qilinayotgan tashkilotning bevosita yoki bilvosita mulkdori bo‘lgan yoxud uni nazorat qilayotgan yuridik yoki jismoniy shaxs, shuningdek, terrorchilik faoliyatini amalga oshirayotgan yoki amalga oshirishda gumon qilinayotgan jismoniy shaxsning yoxud tashkilotning mulkidagi yoki nazorati ostidagi yuridik shaxs;

ommaviy qirg‘in qurolini tarqatishda ishtirok etayotgan yoki ishtirok etishda gumon qilinayotgan shaxs — O‘zbekiston Respublikasi tomonidan tan olingan, ommaviy qirg‘in qurolini tarqatishini oldini olishga qaratilgan Birlashgan Millatlar Tashkiloti Xavfsizlik Kengashining (bundan buyon matnda BMT Xavfsizlik Kengashi deb yuritiladi) tegishli rezolyutsiyalari hamda boshqa xalqaro-huquqiy hujjatlar bilan belgilangan jismoniy yoki yuridik shaxs;

operatsiyalarni to‘xtatib turish — mijozning pul mablag‘larini yoki boshqa mol-mulkni ko‘chirish, konversiyalash, o‘zga shaxslarga egalik qilish va foydalanish uchun berish, shuningdek yuridik ahamiyatga ega bo‘lgan boshqa harakatlarni bajarish to‘g‘risidagi topshiriqnomalari ijrosini to‘xtatib turish;

BMT Xavfsizlik Kengashining sanksiyaviy ro‘yxatlari — BMT Xavfsizlik Kengashi va uning qo‘mitalari tomonidan tuziladigan, shu jumladan BMT Xavfsizlik Kengashining IShID (DAISh) va “Al-Qoida” bo‘yicha 1267, 1989 va 2253-rezolyutsiyalari asosida tashkil etilgan qo‘mitaning hamda “Tolibon” tashkiloti bo‘yicha 1988 va Koreya Xalq Demokratik Respublikasi bo‘yicha 1718-rezolyutsiyalari asosida tashkil etilgan qo‘mitalarning terrorchilik faoliyatiga yoki

ommaviy qirg'in qurolini tarqatishga aloqador bo'lgan shaxslarga nisbatan sanksiyalar qo'llanilishi belgilangan jismoniy va yuridik shaxslar ro'yxatlari;

BMT Xavfsizlik Kengashining tegishli rezolyutsiyalar — BMT Xavfsizlik Kengashi tomonidan qabul qilingan terrorizmga qarshi kurashishga qaratilgan rezolyutsiyalar (1267 (1999), 1333 (2000), 1363 (2001), 1373 (2001), 1390 (2002), 1452 (2002), 1455 (2003), 1526 (2004), 1617 (2005), 1730 (2006), 1735 (2006), 1822 (2008), 1904 (2009), 1988 (2011), 1989 (2011), 2161 (2014), 2170 (2014), 2178 (2014), 2253 (2015), 2368 (2017) va ularni rivojlantirishga qaratilgan rezolyutsiyalar) yoki ommaviy qirg'in qurolini tarqatishga qarshi kurashishga qaratilgan rezolyutsiyalar (1718 (2006), 1737 (2006), 1747 (2007), 1803 (2008), 1874 (2009), 1929 (2010), 2087 (2013), 2094 (2013), 2231 (2015), 2270 (2016), 2321 (2016), 2356 (2017), 2371 (2017), 2375 (2017), 2397 (2017) va ularni rivojlantirishga qaratilgan rezolyutsiyalar);

maxsus vakolatli davlat organi — qonunchilik hujjatlariga muvofiq jinoiy faoliyatdan olingen daromadlarni legallashtirishga, terrorizmni moliyalashtirishga va ommaviy qirg'in qurolini tarqatishni moliyalashtirishga qarshi kurashish masalalari bo'yicha belgilanadigan davlat organi.

2. O'zbekiston Respublikasi fuqarolari va yuridik shaxslari, chet el fuqarolari va yuridik shaxslari hamda fuqaroligi bo'lman shaxslar O'zbekiston Respublikasi hududida terrorchilik faoliyatida yoki ommaviy qirg'in qurolini tarqatishda ishtirop etayotgan yoki ishtirop etishda gumon qilinayotgan shaxslar ro'yxatiga kiritilgan shaxslarga hamda ularning topshirig'iga ko'ra harakat qilayotgan shaxslarga, shuningdek terrorchilik faoliyatida ishtirop etayotgan yoxud ishtirop etishda gumon qilinayotgan jismoniy shaxsning yoxud tashkilotning mulkidagi yoki nazorati ostidagi yuridik shaxsga bevosita yoki bilvosita pul mablag'lari yoki boshqa mol-mulkni taqdim etishi, moliyaviy va boshqa xizmatlar ko'rsatishi yoki bunday xizmatlardan foydalanishga ruxsat berishi taqilanganadi.

3. Pul mablag'lari yoki boshqa mol-mulk bilan bog'liq operatsiyalarini amalga oshiruvchi tashkilotlar:

operatsiya ishtiropchilarini terrorchilik faoliyatida yoki ommaviy qirg'in qurolini tarqatishda ishtirop etayotgan yoki ishtirop etishda gumon qilinayotgan shaxslar ro'yxatiga kiritilgan shaxslar bilan solishtirishi;

terrorchilik faoliyatida yoki ommaviy qirg'in qurolini tarqatishda ishtirop etayotgan yoki ishtirop etishda gumon qilinayotgan shaxslar ro'yxatiga kiritilgan shaxslarning operatsiyasini kechiktirmasdan va oldindan xabar qilmasdan to'xtatib turishi, bundan yuridik yoki jismoniy shaxsning hisobvarag'iga tushgan pul mablag'larini hisobga kiritish bo'yicha operatsiyalar mustasno, va (yoki) pul mablag'larini yoki boshqa mol-mulkini ishga solmay to'xtatib qo'yishi, shuningdek shubhali operatsiya to'g'risida maxsus vakolatli davlat organiga xabar yuborishi shart.

2-bob. Terrorchilik faoliyatida yoki ommaviy qirg'in qurolini tarqatishda ishtirop etayotgan yoki ishtirop etishda gumon qilinayotgan shaxslar ro'yxatini shakllantirish va ularni ro'yxatdan chiqarish tartibi

1-§. Terrorchilik faoliyatida yoki ommaviy qirg'in qurolini tarqatishda ishtirop etayotgan yoki ishtirop etishda gumon qilinayotgan shaxslar ro'yxatini shakllantirish tartibi

4. Terrorchilik faoliyatida yoki ommaviy qirg'in qurolini tarqatishda ishtirop etayotgan yoki ishtirop etishda gumon qilinayotgan shaxslar ro'yxati (bundan buyon matnda Ro'yxat deb yuritiladi) O'zbekiston Respublikasining vakolatli organlari tomonidan taqdim etiladigan ma'lumotlar, shuningdek chet davlatlarning vakolatli organlaridan hamda xalqaro tashkilotlardan rasmiy kanallar orqali olingen ma'lumotlar asosida maxsus vakolatli davlat organi tomonidan shakllantiriladi. Ro'yxat va uning shakli maxsus vakolatli davlat organining rahbari tomonidan tasdiqlanadi.

5. Ro'yxat quyidagi bo'limlardan iborat bo'ladi:

O'zbekiston Respublikasining vakolatli organlari va xorijiy davlatlarning vakolatli organlarining ma'lumotlari asosida tuziladigan milliy ro'yxat;

xalqaro tashkilotlardan olinadigan ma'lumotlar asosida tuziladigan xalqaro ro'yxat.

6. Shaxsni Ro'yxatga kiritish uchun quyidagilar asos bo'lib hisoblanadi:

a) O‘zbekiston Respublikasi sudining terrorchilik faoliyati yoki ommaviy qirg‘in qurolini tarqatish bilan bog‘liq jinoyatni sodir etgan shaxsni aybdor deb topish haqidagi qonuniy kuchga kirgan hukmi;

b) O‘zbekiston Respublikasi sudining tashkilotni terrorchilik tashkiloti deb topish va uni tugatish yoki O‘zbekiston Respublikasi hududida faoliyatini taqiqlash to‘g‘risidagi qonuniy kuchga kirgan qarori;

v) tergovchi yoki prokurorning terrorchilik faoliyati yoki ommaviy qirg‘in qurolini tarqatish bilan bog‘liq jinoyatni sodir etgan shaxsni jinoyat ishida gumon qilinuvchi yoki ayblanuvchi tariqasida ishtirok etishga jalb qilish to‘g‘risidagi qarori;

g) terrorchilik faoliyati yoki ommaviy qirg‘in qurolini tarqatish bilan bog‘liq jinoyatni sodir etgan shaxsga nisbatan qidiruv, shu jumladan davlatlararo yoki xalqaro qidiruv e’lon qilinishi;

d) jismoniy shaxs yoki tashkilot BMT Xavfsizlik Kengashining sanksiyaviy ro‘yxatlari yoxud uning tegishli rezolyutsiyalariga kiritilishi;

e) O‘zbekiston Respublikasi tomonidan tan olingen xalqaro shartnomalar yoki o‘zarolik prinsipi asosida xorijiy davlatlarning terrorchilik faoliyatida yoki ommaviy qirg‘in qurolini tarqatishda ishtirok etayotgan yoki ishtirok etishda gumon qilinayotgan shaxslarning ro‘yxatlari;

j) O‘zbekiston Respublikasi tomonidan tan olingen xalqaro shartnomalar yoki o‘zarolik prinsipi asosida xorijiy davlat sudining shaxsni terrorchilik faoliyati yoki ommaviy qirg‘in qurolini tarqatish bilan bog‘liq jinoyatni sodir etishda aybdor deb topish haqidagi qonuniy kuchga kirgan hukmi, shuningdek tashkilotni terrorchilik tashkiloti deb topish va uni tugatish yoki faoliyatini taqiqlash to‘g‘risidagi qonuniy kuchga kirgan qarori;

z) O‘zbekiston Respublikasi tomonidan tan olingen xalqaro shartnomalar yoki o‘zarolik prinsipi asosida xorijiy davlatlar vakolatlari organlarining terrorchilik faoliyatida yoki ommaviy qirg‘in qurolini tarqatishda ishtirok etayotgan yoki ishtirok etishda gumon qilinayotgan shaxslarning operatsiyalarini to‘xtatib turish va (yoki) pul mablag‘larini yoki boshqa mol-mulkini ishga solmay to‘xtatib qo‘yish to‘g‘risidagi so‘rovlari.

7. Ro‘yxatni shakllantirish uchun O‘zbekiston Respublikasining vakolatli organlari ushbu Nizomning **6-bandida** nazarda tutilgan ma’lumotlarni, ular olingen paytdan boshlab yoki shaxsni Ro‘yxatga kiritish uchun asoslar yuzaga kelgan vaqtidan boshlab bir ish kuni mobaynida tasdiqlovchi hujjalarning ko‘chirma nusxalarini ilova qilingan holda maxsus vakolatli davlat organiga taqdim etadilar.

Ma’lumotlar qog‘oz yoki elektron ko‘rinishdagi hujjat sifatida rasmiylashtiriladi hamda maxsus vakolatli davlat organiga shaxsan yoki maxsus mo‘ljallangan pochta aloqasi yoxud himoyalangan aloqa kanallari orqali taqdim etiladi.

8. Maxsus vakolatli davlat organi tomonidan ushbu Nizomning **6-bandida** nazarda tutilgan ma’lumotlar “Elektron jinoiy-huquqiy statistika” yagona axborot tizimidan foydalangan holda ham olinadi.

9. Maxsus vakolatli davlat organi BMT Xavfsizlik Kengashining sanksiyaviy ro‘yxatlari yoki tegishli rezolyutsiyalariga kiritilgan shaxslar to‘g‘risidagi ma’lumotlarni BMT Xavfsizlik Kengashining rasmiy veb-saytidan oladi.

BMT Xavfsizlik Kengashining sanksiyaviy ro‘yxatlari va tegishli rezolyutsiyalariga asosan shaxslarni Ro‘yxatga kiritish va undan chiqarish maxsus vakolatli davlat organining qarori bilan tasdiqlanmaydi.

10. Ro‘yxatga kiritiladigan shaxslarni identifikatsiya (verifikatsiya) qilish uchun maxsus vakolatli davlat organiga O‘zbekiston Respublikasining vakolatli organlari tomonidan quyidagi ma’lumotlar taqdim qilinadi:

a) taqdim qilinishi shart bo‘lgan ma’lumotlar:

yuridik shaxsga nisbatan — nomi va soliq to‘lovchining identifikatsion raqami (STIR);

jismoniy shaxsga nisbatan — familiyasi, ismi, otasining ismi, tug‘ilgan yili (kun, oy, yil) va joyi, pasporti (identifikatsiya ID kartasi) yoki shaxsni tasdiqlovchi boshqa hujjatining rekvizitlari, yashash joyi (ro‘yxatdan o‘tish) manzili yoki turish joyi;

b) qo‘srimcha ma’lumotlar, agarda mavjud bo‘lsa:

yuridik shaxsga nisbatan — davlat ro‘yxatidan o‘tkazilganligi to‘g‘risidagi guvohnomaning raqami, tashkiliy-huquqiy shakli va faoliyat turi, yuridik manzili, rahbar va ta’sischilar (mulkdorlar) to‘g‘risidagi (familiyasi, ismi, otasining ismi, tug‘ilgan sanasi, yashash manzili) ma’lumot, banklardagi hisob raqamlari va mol-mulki to‘g‘risidagi ma’lumotlar;

jismoniy shaxsga nisbatan — jismoniy shaxsnинг shaxsiy identifikatsion raqami (JShShIR), ish joyi va lavozimi to‘g‘risidagi ma’lumotlar, agarda yakka tartibdagi tadbirkor sifatida faoliyat ko‘rsatayotgan bo‘lsa, davlat ro‘yxatidan o‘tgan guvohnomasining raqami va faoliyat turi.

11. Agarda olingan ma’lumotlar to‘liq bo‘lmasa yoki noaniq bo‘lsa maxsus vakolatli davlat organi qo‘sishma ma’lumot olish uchun ma’lumotlar bazalaridan foydalanadi yoki O‘zbekiston Respublikasining tegishli vakolatli organlariga murojaat qiladi.

O‘zbekiston Respublikasining vakolatli organlari so‘rovni olgan kundan uch ish kuni davomida qo‘sishma ma’lumotlarni taqdim etadilar, bundan ularni taqdim etish uchun xorijiy davlatlarning vakolatli organlari yoki xalqaro tashkilotlarga murojaat qilish zarur bo‘lgan holatlar mustasno.

12. Shaxslarni Ro‘yxatga kiritishda qo‘sishma ma’lumot olish zaruriyati bo‘lsa, maxsus vakolatli davlat organi ushbu masala hal etilgunga qadar mazkur shaxslarning operatsiyalarini 30 ish kunidan ko‘p bo‘lmagan muddatga to‘xtatib qo‘yishi mumkin.

13. Maxsus vakolatli davlat organi quyidagi muddatlarda Ro‘yxatni shakllantiradi hamda unga o‘zgartirish va qo‘sishchalar kiritadi:

ma’lumotlar BMT Xavfsizlik Kengashining rasmiy veb-saytidan olingan vaqtidan boshlab bir soat ichida;

ma’lumotlar O‘zbekiston Respublikasining vakolatli organlaridan yoki xorijiy davlatlarning vakolatli organlaridan kelib tushgan yoxud “Elektron jinoiy-huquqiy statistika” yagona axborot tizimidan olingan ma’lumotlar hamda Ro‘yxatga kiritish uchun asos bo‘lgan ma’lumotlarni tekshirish natijalari bo‘yicha yoki sudning qaroriga ko‘ra amalga oshiriladi.

2-§. Terrorchilik faoliyatida yoki ommaviy qirg‘in qurolini tarqatishda ishtirok etayotgan yoki ishtirok etishda gumon qilinayotgan shaxslarni Ro‘yxatdan chiqarish tartibi

14. Shaxslarni Ro‘yxatdan chiqarish BMT Xavfsizlik Kengashining sanksiyaviy ro‘yxatlari yoki tegishli rezolyutsiyalaridan chiqarilishi to‘g‘risida BMT Xavfsizlik Kengashining rasmiy veb-saytidan olingan ma’lumotlar, shuningdek O‘zbekiston Respublikasining vakolatli organlari, xorijiy davlatlar vakolatli organlarining murojaatlari, “Elektron jinoiy-huquqiy statistika” yagona axborot tizimidan olingan ma’lumotlar hamda Ro‘yxatga kiritish uchun asos bo‘lgan ma’lumotlarni tekshirish natijalari bo‘yicha yoki sudning qaroriga ko‘ra amalga oshiriladi.

Shaxsni Ro‘yxatdan chiqarish to‘g‘risidagi murojaat maxsus vakolatli davlat organiga Ro‘yxatdan chiqarish uchun asos bo‘luchchi ma’lumotlar olingan yoki aniqlangan kundan keyingi ish kunidan kechiktirmasdan yuboriladi.

15. Shaxslarni Ro‘yxatdan chiqarish uchun quyidagilar asos bo‘lib hisoblanadi:

a) O‘zbekiston Respublikasi sudining terrorchilik faoliyati yoki ommaviy qirg‘in qurolini tarqatish bilan bog‘liq jinoyatni sodir etishda ayblangan (sudlangan) shaxsga nisbatan chiqarilgan qonuniy kuchga kirgan oqlov hukmi;

b) O‘zbekiston Respublikasi sudining tashkilotni terrorchilik tashkiloti deb topish va uni tugatish yoki O‘zbekiston Respublikasi hududida faoliyatini taqiqlash to‘g‘risidagi qarorni bekor qilish haqidagi qonuniy kuchga kirgan qarori;

v) terrorchilik faoliyati yoki ommaviy qirg‘in qurolini tarqatish bilan bog‘liq jinoyatni sodir etgan shaxs tayinlangan jazo muddatini o‘tab bo‘lishi;

g) terrorchilik faoliyati yoki ommaviy qirg‘in qurolini tarqatish bilan bog‘liq jinoyatni sodir etgan shaxsga nisbatan O‘zbekiston Respublikasining Jinoyat-protsessual kodeksi **83-moddasi** hamda 84-moddasi birinchi qismi **1 — 3-bandlarida** nazarda tutilgan asoslarga ko‘ra jinoyat ishi tugatilishi;

d) jismoniy shaxs yoki tashkilot BMT Xavfsizlik Kengashining sanksiyaviy ro‘yxatlari yoxud tegishli rezolyutsiyalaridan chiqarilishi;

e) shaxsni Ro‘yxatdan chiqarish to‘g‘risidagi xorijiy davlat vakolatli organining rasmiy xabari;

j) xorijiy davlat sudining terrorchilik faoliyati yoki ommaviy qirg‘in qurolini tarqatish bilan bog‘liq jinoyatni sodir etishda sudlangan shaxsga nisbatan chiqarilgan qonuniy kuchga kirgan oqlov hukmi, shuningdek tashkilotni terrorchilik tashkiloti deb topish va uni tugatish yoki faoliyatini taqqlash haqidagi qarorni bekor qilish haqidagi qonuniy kuchga kirgan qarori;

z) xorijiy davlat vakolatli organining terrorchilik faoliyatida yoki ommaviy qirg‘in qurolini tarqatishda ishtirok etayotgan yoki ishtirok etishda gumon qilinayotgan shaxslarning operatsiyalarini to‘xtatib turish va (yoki) pul mablag‘larini yoki boshqa mol-mulkini ishga solmay to‘xtatib qo‘yish to‘g‘risidagi so‘rovi chaqirib olinishi yoki bekor qilinishi;

i) shaxsnинг vafot etganlik holatini tasdiqlovchi rasmiy hujjatlar.

16. Ro‘yxatni doimiy ravishda yangilab borish maqsadida maxsus vakolatli davlat organi O‘zbekiston Respublikasining vakolatli organlari bilan birqalikda shaxsni Ro‘yxatga kiritish uchun asos bo‘lgan ma‘lumotlarni har yili kamida bir marotaba tekshirib (solishtirib) boradi.

3-§. Shaxslarni Ro‘yxatga kiritish to‘g‘risidagi qaror ustidan shikoyat berish tartibi

17. Jismoniy yoki yuridik shaxs O‘zbekiston Respublikasi vakolatli organlarining ma‘lumotlari asosida Ro‘yxatga adashib kiritilganligi yoki ushbu Nizomning **15-bandida** nazarda tutilgan asoslarga ko‘ra Ro‘yxatdan chiqarilmaganlik holatlari bo‘yicha maxsus vakolatli davlat organiga asoslantirilgan ariza bilan murojaat qiladi.

18. Maxsus vakolatli davlat organi arizani o‘zi ko‘rib chiqadi yoki arizani olgan kundan keyingi ish kunidan kechiktirmasdan shaxsni Ro‘yxatga kiritish uchun ma‘lumoti asos bo‘lgan O‘zbekiston Respublikasining tegishli vakolatli organiga uni ko‘rib chiqish uchun yuboradi.

Arizani qabul qilgan organ uni yetti ish kuni davomida qonunchilik hujjatlarida belgilangan tartibda ko‘rib chiqadi hamda quyidagi qarorlardan birini qabul qiladi (bundan qaror qabul qilish uchun xorijiy davlatlar vakolatli organlariga yoxud xalqaro tashkilotlarga so‘rovlar yuborish zarur bo‘lgan holatlar mustasno):

shaxsni Ro‘yxatdan chiqarish to‘g‘risida taklif kiritish haqida;

arizani qanoatlantirishni rad etish to‘g‘risida.

19. Maxsus vakolatli davlat organi arizani ko‘rib chiqish natijasi bo‘yicha yoki O‘zbekiston Respublikasining vakolatli organining javob xatini olgan kundan ikki ish kunidan kechiktirmasdan qabul qilingan qaror haqida arizachini xabardor qiladi.

20. Jismoniy yoki yuridik shaxs arizani qanoatlantirishni rad etish to‘g‘risidagi qaror ustidan sud tartibida shikoyat qilish huquqiga ega.

21. Jismoniy yoki yuridik shaxs xorijiy davlatlarning vakolatli organlaridan yoki xalqaro tashkilotlardan olinadigan ma‘lumotlar asosida Ro‘yxatga kiritilishi ustidan quyidagi tashkilot va organlarga shikoyat qilishga haqli:

BMT Xavfsizlik Kengashining sanksiyaviy ro‘yxatlari yoki tegishli rezolyutsiyalariga asosan kiritilganlik holat bo‘yicha BMT Xavfsizlik Kengashining 1730 (2006) rezolyutsiyasiga asosan tuzilgan Aloqa markaziga yoki BMT Xavfsizlik Kengashining 1904 (2009) rezolyutsiyasiga asosan ta’sis etilgan Ombudsman Devonxonasisiga;

xorijiy davlatning terrorchilik faoliyatida yoki ommaviy qirg‘in qurolini tarqatishda ishtirok etayotgan yoki ishtirok etishda gumon qilinayotgan shaxslar ro‘yxatlari asosida Ro‘yxatga kiritilgan holat bo‘yicha xorijiy davlatning vakolatli organiga;

shaxsni Ro‘yxatga kiritish uchun asos bo‘lgan xorijiy davlat sudining hukmi yoki qarori ustidan yuqori turuvchi sudiga;

shaxsni Ro‘yxatga kiritish uchun asos bo‘lgan operatsiyalarini to‘xtatib turish va (yoki) pul mablag‘larini yoki boshqa mol-mulkni ishga solmay to‘xtatib qo‘yish to‘g‘risida so‘rovni yuborgan xorijiy davlatning vakolatli organiga.

3-bob. Ro‘yxatni pul mablag‘lari yoki boshqa mol-mulk bilan bog‘liq operatsiyalarini amalga oshiruvchi tashkilotlarga yetkazish tartibi

22. Maxsus vakolatli davlat organi Ro‘yxatni shakllantirgan yoki unga tegishli o‘zgartirishlar kiritgandan so‘ng bir soat ichida o‘zining rasmiy veb-saytiga joylashtirish yoki

elektron aloqa kanallari orqali yuborish yo‘li bilan pul mablag‘lari yoki boshqa mol-mulk bilan bog‘liq operatsiyalarni amalga oshiruvchi tashkilotlarga yetkazadi.

Shuningdek, maxsus vakolatli davlat organi Ro‘yxatni boshqa jismoniy va yuridik shaxslarga o‘zining rasmiy veb-saytiga joylashtirish orqali yetkazadi.

23. Pul mablag‘lari yoki boshqa mol-mulk bilan bog‘liq operatsiyalarni amalga oshiruvchi tashkilotlar Ro‘yxat maxsus vakolatli davlat organining rasmiy veb-saytida yangilanganligini yoki elektron aloqa kanali orqali kelib tushganligini kuzatib borishlari hamda mazkur jarayonga mas‘ul bo‘lgan xodimni (tarmoqni) belgilashlari shart.

Pul mablag‘lari yoki boshqa mol-mulk bilan bog‘liq operatsiyalarni amalga oshiruvchi tashkilotlarning mas‘ul xodimi (tarmog‘i) Ro‘yxat maxsus vakolatli davlat organining rasmiy veb-saytida joylashtirilgan yoki elektron aloqa kanallari orqali kelib tushgan paytdan boshlab uch soat ichida Ro‘yxatni ushbu tashkilotning tegishli xodimlariga (tarmoqlariga), shu jumladan mijozlar bilan bevosita ishlaydigan xodimlarga (tarmoqlarga) yuborilishini va (yoki) undan foydalanish imkoniyatini ta’minlashi shart.

4-bob. Ro‘yxatga kiritilgan shaxslarning operatsiyalarini to‘xtatib turish va (yoki) pul mablag‘larini yoki boshqa mol-mulkini ishga solmay to‘xtatib qo‘yish tartibi

24. Pul mablag‘lari yoki boshqa mol-mulk bilan bog‘liq operatsiyalarni amalga oshiruvchi tashkilotlar operatsiyalarni amalga oshirishda ularning ishtirokchilari va mijozlarning benefitsiar mulkdorlarini Ro‘yxat bilan solishtirishlari, shuningdek ishga solmay to‘xtatib qo‘yilishi lozim bo‘lgan pul mablag‘lari yoki boshqa mol-mulkni aniqlash maqsadida muntazam ravishda (Ro‘yxat yangilangan har bir holatda, lekin kamida uch oyda bir marotaba) mijozlar va ularning benefitsiar mulkdorlarining ma’lumotlari bazalarini monitoring qilib borishlari shart.

25. Pul mablag‘lari yoki boshqa mol-mulk bilan bog‘liq operatsiyalarni amalga oshiruvchi tashkilotlar mijoz yoki operatsiya qatnashchilaridan birining identifikatsion ma’lumotlari Ro‘yxatga kiritilgan shaxsning ma’lumotlari bilan to‘liq mos kelganligini, shuningdek Ro‘yxatga kiritilgan shaxsning pul mablag‘lari yoki boshqa mol-mulkini aniqlagan taqdirda kechiktirmasdan va oldindan xabar qilmasdan operatsiyani amalga oshirishni to‘xtatib turadi (bundan jismoniy yoki yuridik shaxs hisobvarag‘iga tushgan pul mablag‘larini hisobga kiritish operatsiyalari mustasno) va (yoki) pul mablag‘larini yoki boshqa mol-mulkini ishga solmay to‘xtatib qo‘yadilar.

26. Quyidagi holatlarda ham operatsiya to‘xtatib turilishi, pul mablag‘lari yoki boshqa mol-mulk ishga solmay to‘xtatib qo‘yilishi shart, agarda:

operatsiya qatnashchilaridan biri Ro‘yxatga kiritilgan shaxs nomidan yoki uning topshirig‘iga asosan faoliyat ko‘rsatayotgan bo‘lsa;

operatsiyani amalga oshirishda foydalanayotgan pul mablag‘lari yoki boshqa mol-mulk to‘liq yoki qisman Ro‘yxatga kiritilgan shaxsga tegishli bo‘lsa yoxud nazorati ostida bo‘lsa;

operatsiya qatnashchisi bo‘lgan yuridik shaxs Ro‘yxatga kiritilgan jismoniy yoki yuridik shaxsning mulkida yoki nazorat ostida bo‘lsa;

pul mablag‘lari yoki boshqa mol-mulk Ro‘yxatga kiritilgan shaxslarga bevosita yoki bilvosita tegishli yoxud nazorati ostida bo‘lgan pul mablag‘lari yoki boshqa mol-mulkidan foydalanish natijasida olingan yoxud sotib olingen bo‘lsa.

27. Pul mablag‘lari yoki boshqa mol-mulk bilan bog‘liq operatsiyalarni amalga oshiruvchi tashkilot Ro‘yxatga kiritilgan shaxslarning operatsiyalari to‘xtatilgan va (yoki) pul mablag‘lari yoki boshqa mol-mulkini ishga solmay to‘xtatib qo‘yilgan holatlar bo‘yicha ishga solmay to‘xtatib qo‘yilgan mulkning summasini ko‘rsatgan holda bir ish kunidan kechiktirmasdan shubhali operatsiya to‘g‘risida, shuningdek bu borada ko‘rilgan barcha choralar hamda mazkur operatsiyani amalga oshirishga qaratilgan urinishlar haqida maxsus vakolatli davlat organiga xabar qilishi shart.

5-bob. To‘xtatib turilgan operatsiyalarini tiklash, pul mablag‘lari yoki boshqa mol-mulkni ishga solmay to‘xtatib qo‘yishni bekor qilish va ulardan foydalanishga ruxsat berish tartibi

28. Quyidagi holatlarda to‘xtatib turilgan operatsiyalar tiklanadi hamda pul mablag‘lari yoki boshqa mol-mulkni ishga solmay to‘xtatib qo‘yish bekor qilinadi:

shaxs Ro‘yxatdan chiqarilganda;

operatsiyasi to‘xtatib turilgan va pul mablag‘lari yoki boshqa mol-mulki ishga solinmay to‘xtatib qo‘yilgan shaxs Ro‘yxatga kiritilgan shaxs bilan bir xildagi identifikatsion ma’lumotlarga ega bo‘lsa (bundan buyon matnda “yanglishish holati” deb yuritiladi).

29. Ro‘yxatga kiritilgan shaxs bilan bir xildagi identifikatsion ma’lumotlarga ega bo‘lgan shaxs to‘xtatib turilgan operatsiyalarini tiklash va (yoki) pul mablag‘lari yoki boshqa mol-mulkini ishga solmay to‘xtatib qo‘yishni bekor qilish yuzasidan maxsus vakolatli davlat organiga yozma murojaat qiladi.

Murojaatga shaxsning to‘liq identifikatsiya qilish uchun zarur bo‘lgan hamda u Ro‘yxatga kiritilgan shaxs emasligini tasdiqlovchi hujjatlar va boshqa ma’lumotlar ilova qilinishi lozim.

30. Maxsus vakolatli davlat organi murojaatni uch ish kuni mobaynida ko‘rib chiqadi va operatsiya ishtirokchisi Ro‘yxatga kiritilgan shaxs emasligi va bu shaxs bilan bir xildagi identifikatsion ma’lumotlarga ega ekanligi tasdiqlansa, bu haqda arizachini va pul mablag‘lari yoki boshqa mol-mulk bilan bog‘liq operatsiyalarni amalga oshiruvchi tashkilotni xabardor qiladi.

Agar taqdim qilingan ma’lumotlar shaxsni to‘liq identifikatsiya (verifikatsiya) qilish imkonini bermasa, maxsus vakolatli davlat organi murojaat kelib tushgan kundan boshlab uch ish kuni mobaynida arizachiga asoslantirilgan rad javobini yuboradi.

31. Pul mablag‘lari yoki boshqa mol-mulk bilan bog‘liq operatsiyalarni amalga oshiruvchi tashkilot quyidagi ma’lumotni olgan kunning o‘zida, lekin keyingi ish kundan kechiktirmasdan to‘xtatilan operatsiyani tiklaydi va (yoki) pul mablag‘lari yoki boshqa mol-mulkni ishga solmay to‘xtatib qo‘yishni bekor qiladi:

shaxs Ro‘yxatdan chiqarib tashlanganligi to‘g‘risida;

“yanglishish holati”ni tasdiqlash haqidagi maxsus vakolatli davlat organining xabarnomasi.

32. Quyidagi maqsadlarda Ro‘yxatga kiritilgan shaxs yoki operatsiyaning boshqa ishtirokchisi ishga solmay to‘xtatib qo‘yilgan mol-mulkidan foydalanishga ruxsat berish uchun pul mablag‘lari yoki boshqa mol-mulk bilan bog‘liq operatsiyalarni amalga oshiruvchi tashkilotga murojaat qilishga haqli:

a) oziq-ovqat mahsulotlari, dori vositalari va tibbiy buyumlarni xarid qilish, turar joy ijarasi, ipoteka krediti, kommunal to‘lovlar, tibbiy xizmat, soliqlar va yig‘imlar, sug‘urta to‘lovlar, o‘rtacha bozor narxi chegarasida advokatlar xizmati va yuridik maslahatlar, bank hisobvaraqlariga xizmat ko‘rsatish yoki mulkni saqlash bilan bog‘liq joriy to‘lov va yig‘imlarni to‘lash uchun;

b) favquloddagi xarajatlarni to‘lash uchun;

v) BMT Xavfsizlik Kengashining 1718 (2006), 1737 (2006), 2231 (2015) rezolyutsiyalari va ularni rivojlantirishga qaratilgan rezolyutsiyalarda nazarda tutilgan holatlar uchun.

Murojaatga to‘lov maqsadi, summasi va asosi, ishga solmay to‘xtatib qo‘yilgan mol-mulki bo‘yicha qaysi mulkidan foydalanishga ruxsat berish, pul mablag‘lari yoki boshqa mol-mulkni oluvchining rekvizitlari va identifikatsion ma’lumotlari, pul mablag‘lari oluvchining banki to‘g‘risidagi ma’lumotlari ilova qilinadi.

33. Pul mablag‘lari yoki boshqa mol-mulk bilan bog‘liq operatsiyalarni amalga oshiruvchi tashkilot bunday murojaatni olgan kundan boshlab bir ish kundan kechiktirmasdan uni maxsus vakolatli davlat organiga yuboradi.

34. Ishga solmay to‘xtatib qo‘yilgan mol-mulkidan foydalanishga ruxsat berish to‘g‘risidagi murojaat kelib tushganidan keyin maxsus vakolatli davlat organi ikki ish kuni mobaynida quyidagi qarorlardan birini qabul qiladi:

a) murojaatni ko‘rib chiqish uchun ma’lumoti shaxsni Ro‘yxatga kiritish uchun asos bo‘lgan O‘zbekiston Respublikasining vakolatli organiga yuborish to‘g‘risida.

Bunda, ma’lumoti shaxsni Ro‘yxatga kiritish uchun asos bo‘lgan organ yetti ish kuni davomida (O‘zbekiston Respublikasining tegishli vakolatli organlaridan ma’lumot olish yoki xorijiy davlatlar vakolatli organlariga yoxud xalqaro tashkilotlarga so‘rovlari yuborish zaruriyati bo‘lgan holatlar mustasno) murojaatni ko‘rib chiqadi va qabul qilingan qaror haqida maxsus vakolatli davlat organini xabardor qiladi.

b) shaxs BMT Xavfsizlik Kengashining sanksiyaviy ro‘yxatlari yoki tegishli rezolyutsiyalari yoxud xorijiy davlatlar vakolatli organlarining so‘rovlari asosida Ro‘yxatga kiritilgan bo‘lsa:

mazkur murojaatni ko'rib chiqish uchun BMT Xavfsizlik Kengashining tegishli rezolyutsiyalari asosida BMT Xavfsizlik Kengashi yoki uning tegishli qo'mitasiga yuborish uchun O'zbekiston Respublikasi Tashqi ishlar vazirligiga yuborish to'g'risida;

so'rov yuborgan xorijiy davlat vakolatli organiga ishga solmay to'xtatib qo'yilgan mol-mulkdan foydalanishga ruxsat berish masalasini kelishish uchun xabarnoma yuborish to'g'risida.

Maxsus vakolatli davlat organi qabul qilingan qaror haqida ikki ish kunidan kechiktirmasdan pul mablag'lari yoki boshqa mol-mulk bilan bog'liq operatsiyalarni amalga oshiruvchi tashkilotni xabardor qiladi.

35. BMT Xavfsizlik Kengashining sanksiyaviy ro'yxatlari yoki tegishli rezolyutsiyalari asosida Ro'yxatga kiritilgan shaxsga ishga solmay to'xtatib qo'yilgan mol-mulkdan foydalanishga ruxsat quyidagi holatlarda berilishi mumkin:

a) ushbu Nizomning 32-bandи “**a**” **kichik bandida** ko'rsatilgan maqsadlar uchun ruxsat olish to'g'risidagi murojaat O'zbekiston Respublikasi Tashqi ishlar vazirligi tomonidan BMT Xavfsizlik Kengashi yoki uning tegishli qo'mitasiga yetkazilganligi va BMT Xavfsizlik Kengashining tegishli rezolyutsiyalarining boshqa talablariga rioya etilganligi sharti bilan;

b) ushbu Nizomning 32-bandи “**b**” **kichik bandida** ko'rsatilgan maqsadlar uchun faqat BMT Xavfsizlik Kengashi yoki uning tegishli qo'mitasining roziligi haqidagi diplomatik kanallar orqali olingen tasdiqlovchi hujjatlar asosida;

v) ushbu Nizomning 32-bandи “**v**” **kichik bandida** ko'rsatilgan maqsadlar uchun BMT Xavfsizlik Kengashining 1718 (2006), 1737 (2006), 2231 (2015) rezolyutsiyalari va ularni rivojlantirishga qaratilgan rezolyutsiyalarning talablariga rioya etgan holda (shu jumladan, shaxs Ro'yxatga kiritilgunga qadar tuzilgan shartnomaga bo'yicha to'lovlar amalga oshirilganda, agarda shartnomaga (bitim) har qanday taqiqlangan buyumlar, materiallar, uskunalar, tovarlar, texnologiyalar, yordam ko'rsatish, o'qitish, moliyaviy ko'mak berish, investitsiyalash, brokerlik faoliyati yoki BMT Xavfsizlik Kengashining 2231 (2015) rezolyutsiyasi va uni rivojlantirishga qaratilgan rezolyutsiyalarda qayd etilgan xizmatlar bilan bog'liq bo'limgan, shuningdek to'lov BMT Xavfsizlik Kengashining 2231 (2015) rezolyutsiyasida ko'rsatilgan choralar tatbiq etiladigan shaxs tomonidan bevosita yoki bilvosita olinmagan hamda BMT Xavfsizlik Kengashiga belgilangan muddatlarda bunday to'lovlarini olish yoki yuborish yoxud zarur bo'lgan hollarda ishga solmay to'xtatib qo'yilgan pul mablag'lari yoki boshqa mol-mulkdan foydalanishga ruxsat berish to'g'risida xabar yuborilgan holatlarda).

36. Pul mablag'lari yoki boshqa mol-mulkdan foydalanishga ruxsat berilgan operatsiya, shu jumladan, uni amalga oshirishga urinish holatlari ham shubhali operatsiyalar deb topiladi hamda bunday operatsiyalar haqida bir ish kunidan kechiktirmasdan pul mablag'lari yoki boshqa mol-mulk bilan bog'liq operatsiyalarni amalga oshiruvchi tashkilotlar tomonidan qonunchilik hujjatlarida belgilangan tartibda maxsus vakolatli davlat organiga xabar qilinishi shart.

6-bob. Operatsiyalarni to'xtatib turish va (yoki) pul mablag'larini yoki boshqa mol-mulkni ishga solmay to'xtatib qo'yish masalalariga doir xalqaro hamkorlik

1-§. Xorijiy davlatlar vakolatli organlarining so'rovlari ijro etish tartibi

37. Xorijiy davlat vakolatli organining terrorchilik faoliyatida yoki ommaviy qirg'in qurolini tarqatishda ishtirok etish yoki ishtirok etishda gumon qilish bilan bog'liq sanksiyalar ostiga tushadigan shaxslarning operatsiyalarini to'xtatib turish va (yoki) pul mablag'larini yoki boshqa mol-mulkini ishga solmay to'xtatib qo'yish to'g'risidagi so'rovida quyidagilar ko'rsatilishi lozim:

shaxs terrorchilik faoliyatida yoki ommaviy qirg'in qurolini tarqatishda ishtirok etishiga yoki ishtirok etishda gumon qilinishiga asos bo'luvchi ma'lumotlar;

BMT Xavfsizlik Kengashining tegishli rezolyutsiyalarida belgilangan sanksiyalarni qo'llash uchun asos bo'lgan mezonlarga to'g'ri kelishi haqida ma'lumotlar;

jismoniy va yuridik shaxslar uchun ushbu Nizomning **10-bandida** nazarda tutilgan ma'lumotlar.

38. Taqdim etilgan ma'lumotlar to'liq bo'lмаган yoki noaniq bo'lган holatlarda maxsus vakolatli davlat organi qo'shimcha ma'lumotlarni so'rab olish uchun tegishli xorijiy davlat vakolatli organiga murojaat qiladi.

39. Maxsus vakolatli davlat organi xorijiy davlat vakolatli organining so'rovini bir ish kuni davomida ko'rib chiqadi va natijasi bo'yicha shaxsni Ro'yxatga kiritish yoki Ro'yxatga kiritishni rad etish to'g'risida qaror qabul qiladi hamda bu to'g'risida so'rov tashabbuskorini xabardor qiladi.

40. Operatsiyalarni to'xtatib turish va (yoki) pul mablag'larini yoki boshqa mol-mulkni ishga solmay to'xtatib qo'yish haqida so'rov ijrosi maxsus vakolatli davlat organining vakolat doirasiga kirmasa, uni ijro etish uchun vakolatli bo'lган O'zbekiston Respublikasining tegishli davlat organiga yuboradi.

41. Xorijiy davlat vakolatli organining so'rovini ijro etish imkonini bo'lмаган taqdirda, ma'lumot va hujjatlar so'rov tashabbuskoriga ijro etishga to'sqinlik qiluvchi sabablar ko'rsatilgan holda qaytariladi.

42. Xorijiy davlat vakolatli organining so'rovi O'zbekiston Respublikasining qonunchilik hujjatlariga zid bo'lsa yoki uning ijrosi O'zbekiston Respublikasi suvereniteti yoki xavfsizligiga zarar yetkazishi mumkin bo'lsa ijro etilmaydi.

2-§. Xorijiy davlatlar vakolatli organlariga va xalqaro tashkilotlarga so'rovlar yuborish tartibi

43. O'zbekiston Respublikasi vakolatli organlari yoki maxsus vakolatli davlat organining xorijiy davlatlar vakolatli organlariga shaxslarning operatsiyalarini to'xtatib turish va (yoki) pul mablag'larini yoki boshqa mol-mulkini ishga solmay to'xtatib qo'yish to'g'risida yuboriladigan so'rovlari BMT Xavfsizlik Kengashi tomonidan belgilangan mezonlarga ko'ra ushbu shaxslar terrorchilik faoliyatida yoki ommaviy qirg'in qurolini tarqatishda ishtirok etishiga yoki ishtirok etishda gumon qilinishiga asos bo'luvchi asoslantirilgan va yetarli ma'lumotlarni, shuningdek imkonini boricha ko'proq identifikatsion va boshqa ma'lumotlarni o'z ichiga olishi lozim.

44. O'zbekiston Respublikasi Davlat xavfsizlik xizmati terrorchilik faoliyatida yoki ommaviy qirg'in qurolini tarqatishda ishtirok etayotgan yoki ishtirok etishda gumon qilinayotgan shaxslarni BMT Xavfsizlik Kengashining sanksiyaviy ro'yxatlariga kiritish uchun takliflar yuborishga mas'ul bo'lган davlat organi hisoblanadi.

45. BMT Xavfsizlik Kengashining sanksiyaviy ro'yxatlariga kiritilishi lozim bo'lган shaxslarni aniqlash va identifikatsiya qilish O'zbekiston Respublikasi Davlat xavfsizlik xizmati tomonidan, shu jumladan O'zbekiston Respublikasining boshqa vakolatli organlari yoki maxsus vakolatli davlat organi bilan hamkorlikda, BMT Xavfsizlik Kengashi tomonidan belgilangan mezonlarga ko'ra va tartibda amalga oshiriladi.

46. O'zbekiston Respublikasining boshqa vakolatli organlari yoki maxsus vakolatli davlat organi BMT Xavfsizlik Kengashining sanksiyaviy ro'yxatlariga kiritilishi lozim bo'lган shaxs to'g'risidagi ma'lumotlarni aniqlagan yoki olgan taqdirda, bunday ma'lumotlarni O'zbekiston Respublikasi Davlat xavfsizlik xizmatiga yuboradilar.

47. O'zbekiston Respublikasi Davlat xavfsizlik xizmati BMT Xavfsizlik Kengashining sanksiyaviy ro'yxatlariga kiritilishi lozim bo'lган shaxslarni aniqlash va identifikatsiya qilish uchun zarur bo'lган ma'lumotlarni O'zbekiston Respublikasining boshqa vakolatli organlari, maxsus vakolatli davlat organi hamda boshqa davlat organlaridan so'rab olish huquqiga ega.

So'ralgan ma'lumotlar uch ish kuni davomida taqdim etiladi, bundan ularni taqdim etish uchun xorijiy davlatlarning vakolatli organlari yoki xalqaro tashkilotlarga murojaat qilish zarur bo'lган holatlar mustasno.

48. O'zbekiston Respublikasi Davlat xavfsizlik xizmati BMT Xavfsizlik Kengashi tomonidan belgilangan mezonlarga ko'ra shaxslar terrorchilik faoliyatida yoki ommaviy qirg'in qurolini tarqatishda ishtirok etishiga yoki ishtirok etishda gumon qilinishiga asos bo'luvchi asoslantirilgan va yetarli ma'lumotlar mavjud bo'lganda, mazkur shaxslarni BMT Xavfsizlik Kengashining sanksiyaviy ro'yxatlariga kiritish uchun takliflar yuborish to'g'risida qaror qabul qiladi.

49. Davlat xavfsizlik xizmati BMT Xavfsizlik Kengashining sanksiyaviy ro‘yxatlariga kiritilishi lozim bo‘lgan shaxs to‘g‘risidagi ma’lumotlarni BMT Xavfsizlik Kengashi yoki uning tegishli qo‘mitasiga ko‘rib chiqish uchun yuborish maqsadida O‘zbekiston Respublikasi Tashqi ishlar vazirligiga taqdim etadi.

50. Ushbu Nizomning **48-bandida** nazarda tutilgan ma’lumotlarni O‘zbekiston Respublikasi Tashqi ishlar vazirligiga taqdim etishda BMT Xavfsizlik Kengashi va uning qo‘mitalari tomonidan belgilangan shakllar to‘ldirilgan hamda ma’lumotlarni yuborish tartib-taomillariga rioya etilgan bo‘lishi shart.

Bunda quyidagi ma’lumotlar taqdim etilishi lozim:

shaxsni BMT Xavfsizlik Kengashi tomonidan belgilangan mezonlarga muvofiq BMT Xavfsizlik Kengashining sanksiyaviy ro‘yxatlariga kiritishni asoslovchi barcha zaruriy ma’lumotlar hamda shaxsni identifikatsiya qilish imkonini beruvchi aniq va ishonchli ma’lumotlar;

shaxsni BMT Xavfsizlik Kengashining sanksiyaviy ro‘yxatlariga kiritilgan shaxslar bilan aloqadorligi to‘g‘risidagi, shuningdek tegishli takliflar O‘zbekiston Respublikasi nomidan kiritilganligini oshkor etish yoki etmaslik mumkinligi haqidagi ma’lumotlar.

51. Shaxsni BMT Xavfsizlik Kengashining sanksiyaviy ro‘yxatlaridan chiqarish uchun takliflar kiritish BMT Xavfsizlik Kengashi rezolyutsiyalari va qo‘mitalarining tegishli hujjatlarida (boshqaruv prinsiplarida) belgilangan tartibda amalga oshiriladi.

52. O‘zbekiston Respublikasining boshqa vakolatlari organlari yoki maxsus vakolatlari davlat organi BMT Xavfsizlik Kengashining sanksiyaviy ro‘yxatlariga kiritilgan shaxs vafot etganligi to‘g‘risida ma’lumotlarni olgan taqdirda, bu haqda O‘zbekiston Respublikasi Davlat xavfsizlik xizmatini xabardor qiladilar.

53. BMT Xavfsizlik Kengashining sanksiyaviy ro‘yxatlariga kiritilgan shaxs sudning qonuniy kuchga kirgan qarori bilan vafot etgan deb e’lon qilingan yoki vakolatlari organ tomonidan o‘limi qayd etilgan taqdirda, O‘zbekiston Respublikasi Davlat xavfsizlik xizmati bu haqda O‘zbekiston Respublikasi Tashqi ishlar vazirligi orqali BMT Xavfsizlik Kengashi yoki uning tegishli qo‘mitasini tasdiqlovchi hujjatlarni ilova qilgan holda xabardor qiladi.

54. BMT Xavfsizlik Kengashining sanksiyaviy ro‘yxatlariga kiritilgan shaxs vafot etgan taqdirda uning qonuniy vorislari uni BMT Xavfsizlik Kengashining sanksiyaviy ro‘yxatlaridan chiqarish uchun BMT Xavfsizlik Kengashining 1730 (2006) rezolyutsiyasiga asosan tuzilgan Aloqa markaziga yoki 1904 (2009) rezolyutsiyasi bilan ta’sis etilgan Ombudsman Devonxonasisiga murojaat etishlari mumkin.

55. Maxsus vakolatlari davlat organining rasmiy veb-saytida shaxsni BMT Xavfsizlik Kengashi sanksiyaviy ro‘yxatlaridan chiqarish tartib-taomillari bilan tanishish imkonini beruvchi BMT Xavfsizlik Kengashi rasmiy veb-saytining tegishli bo‘limlari havolasi joylashtiriladi.

7-bob. Yakunlovchi qoidalar

56. Maxsus vakolatlari davlat organi tegishli nazorat qiluvchi, litsenziyalovchi, ro‘yxatdan o‘tkazuvchi organlar yoki qonunchilik hujjatlariga muvofiq nazorat yuklatilgan boshqa organlar bilan hamkorlikda pul mablag‘lari yoki boshqa mol-mulk bilan bog‘liq operatsiyalarni amalga oshiruvchi tashkilotlar tomonidan ushbu Nizom talablariga rioya etilishi ustidan monitoring va nazoratni amalga oshiradi.

57. Operatsiyalarni to‘xtatib turish va (yoki) pul mablag‘lari yoki boshqa mol-mulkni ishga solmay to‘xtatib qo‘yish natijasida mulkiy zarar ko‘rgan jismoniy va yuridik shaxslar pul mablag‘lari yoki boshqa mol-mulkni ishga solmay to‘xtatib qo‘yish chorasi qo‘llanilgan shaxsga nisbatan ushbu zararni qoplash da’vosi bilan sudga murojaat qilishga haqli.

58. Maxsus vakolatlari davlat organi zarur hollarda terrorchilik faoliyatida yoki ommaviy qirg‘in qurolini tarqatishda ishtirot etayotgan yoki ishtirot etishda gumon qilinayotgan shaxslarning pul mablag‘lari yoki boshqa mol-mulkni ishga solmay to‘xtatib qo‘yish, operatsiyalarni tiklash, ishga solmay to‘xtatib qo‘yilgan mol-mulkdan foydalanishga ruxsat berish va boshqa masalalar bo‘yicha tushuntirishlar taqdim etadi hamda ularni jismoniy va yuridik shaxslar, xususan pul mablag‘lari yoki boshqa mol-mulk bilan operatsiyalarni amalga oshiruvchi tashkilotlarga, shu jumladan o‘zining rasmiy veb-saytida joylashtirish orqali yetkazadi.

59. Ushbu Nizomning buzilishida aybdor bo‘lgan shaxslar qonunchilik hujjalarda belgilangan tartibda javobgar bo‘ladilar.

60. Mazkur Nizom O‘zbekiston Respublikasi Davlat xavfsizlik xizmati, Tashqi ishlar vazirligi, Moliya vazirligi, Ichki ishlar vazirligi, Axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalarini rivojlantirish vazirligi, O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Loyiha boshqaruvi milliy agentligi, Markaziy banki, Sanoat xavfsizligi davlat qo‘mitasi, Monopoliyaga qarshi kurashish qo‘mitasi va Davlat aktivlarini boshqarish agentligi bilan kelishilgan.

(Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 19.10.2021-y., 10/21/3327/0979-son)